

MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA O'QITUVCHI VA TALABALARNING PEDAGOGIK MULOQOTI

Qodirova Z.

Andijon Mediata'lim texnikumi

O'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7736805>

Annatatsiya ushbu maqolada muloqot ta'lim va tarbiya hamda shaxsni rivojlantirish vazifalarini xal qilishda asosiy vositalar nimalardan iborat ekanligi haqida yoritilgan. Qolaversa, pedagogik muloqot shaxslararo muloqotning o'ziga xos shakli ekanligi, o'zining xarakterli xususiyatlariga egaligi, ayni paytda insonlararo o'zaro ta'sirning shakli sanalmish muloqotga xos, kommunikativ, interfaol va perseptiv komponentlardan iborat bo'lgan umumiy psixologik qonuniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: metod, ta'lim, pedagogik muloqot, psixologik qonuniyatlar, realizatsiyalash, shaxs, ochiq istiqbol

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish tahlim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Muloqot pedagogika fanining asosiy muammolaridan sanaladi. Muloqot ta'lim va tarbiya, shaxsni rivojlantirish vazifalarini xal qilishda asosiy vosita sanaladi. U maqbul psixologik muhit, ta'lim-tarbiya jarayonining optimal holati va pedagogik maqsadlarga erishishga yo'naltiriladi.

Pedagogik muloqot shaxslararo muloqotning o'ziga xos shakli bo'lib, o'zining xarakterli xususiyatlariga ega bo'lib, ayni paytda insonlararo o'zaro ta'sirning shakli sanalmish muloqotga xos, kommunikativ, interfaol va perseptiv komponentlardan iborat bo'lgan umumiy psixologik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Pedagogik muloqot pedagogik jarayonni amalga oshirishning asosiy shakli bo'lib, uning mahsuldorligi, birinchi galda, ta'lim maqsadlari va qadriyatlarini, demak, ularga erishish uchun zarur bo'lgan muloqot bilan belgilanadi. Tilga

olingan qadriyat va maqsadlar muloqotning barcha qatnashchilari tomonidan mazkur jarayonda individual xulq-atvorning imperativi sifatida qabul qilinishi talab etiladi.

Shunday qilib, pedagogik muloqot – ta’lim oluvchilar va pedagoglar o’rtasida aloqa o’zaro tushunish va o’zaro ta’sirni tashkil qilish, yo’lga qo’yish va rivojlantirish bilan bog’liq ko’p qirrali jarayondir. Shu bois ham bo’lajak o’qituvchi pedagogik muloqotni to’g’ri va samarali tashkil qilishi uchun muloqotning maqsadi va mazmunini anglab yetishi, uning vositalari, vazifalari, shakl va uslublarini, umumiy tuzilishi va turli modellarini bilishi talab qilinadi.


Pedagogik muloqotning maqsadi ta’lim beruvchining tahlim oluvchiga ijtimoiy, kasbiy va hayotiy tajribani (bilim, ko’nikma va malakalarni) uzatishidan iborat. Aynan muloqot ta’lim oluvchining hamda, tahlim beruvchining individualligi, yangi sifat va xususiyatlari yuzaga kelishi va rivojlanishiga ko’maklashadi. Faqat pedagogik muloqot jarayonidagina ta’lim oluvchilarga umumiy va kasbiy madaniyat, hayotiy maqsad va qadriyatlar tizimi, axloqiy-ma’naviy me’yor hamda tamoyillarni singdirish mumkin.

Pedagogik muloqot mazmuni, avvalo, axborot almashishdan iborat bo’lib, u o’qituvchi tomonidan ta’lim oluvchilar bilan o’zaro tushunish va o’zaro munosabatlarni tashkil qilishga yo’naltiriladi. Bunda pedagog turli kommunikativ vositalardan foydalanadi. Muloqot - juda murakkab, ko’p kirrali va ko’p predmetli ijtimoiy-psixologik fenomen. U o’z yo’nalganligi va ichki mazmuniga ko’ra rang-barang. Pedagogik muloqot mazmunini muloqot predmetini, aniqrog’i uning nima haqda ekanini tahlil qilibgina anglash mumkin bo’ladi.

Pedagogik muloqot vositalarini tahlim jarayonida taqdim etiladigan axborotni kodlash, uzatish, qayta ishlash va shifrdan chiqarish sifatida tushunish va ta’riflash mumkin. Muloqot vositalari insonning muloqot mazmunini amalga oshirishi, uning maqsadiga erishishini ta’minlovchi vositalar.

Pedagogik muloqotni realizatsiyalash, tanlangan vositalar orqali uning maqsadlari va mazmuniga erishish shu muloqotning vazifalari (funktsiyalar)ning mahlum yig’indisini amalga oshirish yo’li bilan tahminlanadi. Shu vazifalarni bajarish davomida tahlim-tarbiya jarayoni oldiga qo’yilgan vazifalarni hal qilish uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish bo’lgan ta’lim oluvchilar va pedagogning o’zaro ta’siri ro’y beradi.

Pedagogik jarayon sub’ektlari o’zaro ta’sirining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:



-konstruktiv, bilimlar mazmunini, muayyan o'quv fanining amaliy ahamiyatini muhokama qilish va tushuntirish chog'ida o'qituvchi bilan tahlim oluvchilarning pedagogik o'zaro ta'sirini tahminlash;

-pedagogik muloqotning tashkiliy vazifasi o'qituvchi va tahlim oluvchilarning o'zaro xabardorligi va o'quv-tarbiya jarayoni muvaffaqiyati uchun umumiy javobgarligi asosidagi hamkorlikdagi o'quv faoliyatini maqsadli tashkil qilishdan iborat;

Pedagogik muloqotning asosiy vazifalari:

-kommunikativ-rag'batlantiruvchi vazifa o'quv-biluv faoliyatining turli (yakka tartibdagi, guruhli, frontal) shakllarini birlashtirish, pedagogik hamkorlikni tahminlash maqsadida o'zaro ta'sir va o'zaro yordamni tashkil qilishda namoyon bo'ladi. U ta'lim oluvchilarning muayyan mashg'ulotda yoki fanni o'zlashtirish davomida nimani bilib olishi, tushunishi, nimalarga o'rganishi kerakligihaqida xabardorligini shakllantirishga yo'naltiriladi;

-pedagogik muloqotning axborot-o'rgatuvchi vazifasi o'quv fanining ta'lim oluvchining bo'lajak kasbiy faoliyat tizimidagi o'rnini va uning ishlab chiqarish bilan aloqasini ko'rsatishga xizmat qiladi. U ta'lim oluvchining dunyoni to'g'ri tushunishi va ijtimoiy hayotga munosabatini shakllantirishga mo'ljallangan bo'lib, o'quvmashg'ulotlarining axborot sig'imi harakatchanligini va materialni, ta'lim oluvchilarning ko'rgazmali-hissiy sohalariga tayangan holda, hissiyotli bayon qilish bilan birikkan to'liqligini ta'minlaydi;

- hissiy-korrigirlovchi vazifa tahlim jarayonida o'quv faoliyati turlarini almashlashda «ochiq istiqbollar» va «g'olibona» o'qitish tamoyillarini amalga oshirishdan iborat. Bu vazifa o'qituvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasida ishonchga asoslangan munosabatlar o'rnatilishi va uning yordamida ta'lim- tarbiya jarayoni sifatini oshirishni ta'minlaydi;

- pedagogik muloqotning nazorat-baholash funktsiyasi pedagog va ta'lim oluvchining o'zaro nazoratini tashkil qilishdan iborat. Faqat pedagogik muloqot jarayonidagina ta'lim oluvchilarga umumiy va kasbiy madaniyat, hayotiy maqsad va qadriyatlar tizimi, axloqiy-ma'naviy me'yor hamda tamoyillarni singdirish mumkin.

Pedagogik muloqot mazmuni, avvalo, axborot almashishdan iborat bo'lib, u o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchilar bilan o'zaro tushunish va o'zaro munosabatlarni tashkil qilishga yo'naltiriladi. Bunda pedagog turli kommunikativ vositalardan foydalanadi. Muloqot - juda murakkab, ko'p karrali va ko'p predmetli ijtimoiy-psixologik fenomen. U o'z yo'nalganligi va ichki mazmuniga ko'ra rang-barang. Pedagogik muloqot mazmunini muloqot

predmetini, aniqrog'i uning nima haqda ekanini tahlil qilibgina anglash mumkin bo'ladi.

Pedagogik muloqot vositalarini ta'lim jarayonida taqdim etiladigan axborotni kodlash, uzatish, qayta ishlash va shifrdan chiqarish sifatida tushunish va tahriflash mumkin. Muloqot vositalari insonning muloqot mazmunini amalga oshirishi, uning maqsadiga erishishini ta'minlovchi vositalar.

Pedagogik muloqotni realizatsiyalash, tanlangan vositalar orqali uning maqsadlari va mazmuniga erishish shu muloqotning vazifalari (funktsiyalar)ning ma'lum yig'indisini amalga oshirish yo'li bilan tahminlanadi. Shu vazifalarni bajarish davomida ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish bo'lgan ta'lim oluvchilar va pedagogning o'zaro ta'siri ro'y beradi. Pedagogik jarayon sub'ektlari o'zaro ta'sirining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-konstruktiv, bilimlar mazmunini, muayyan o'quv fanining amaliy ahamiyatini muhokama qilish va tushuntirish chog'ida o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilarning pedagogik o'zaro ta'sirini ta'minlash;

-pedagogik muloqotning tashkiliy vazifasi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro xabardorligi va o'quv-tarbiya jarayoni muvaffaqiyati uchun umumiy javobgarligi asosidagi hamkorlikdagi o'quv faoliyatini maqsadli tashkil qilishdan iborat;

Insonlarning birgalikdagi faoliyat maqsadi, vazifalari va xarakteriga ko'ra, tashkil etilishi va o'zaro munosabatlarning shakllangan tizimiga ko'ra muloqotning bir necha turi farqlanadi. O'qituvchining ijtimoiy va kasbiy nuqtai nazari uning pedagogik muloqot uslubiga (pedagogning tahlim oluvchilar bilan o'zarohamkorligi individual-tipologik xususiyatlariga) ta'sir etmay qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2909 qarori - Toshkent, 2017 y, 20-aprel.
2. Oliy ta'lim. Me'yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. Toshkent, "Istiqlol", 2013.
3. Mavlonova R., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika - Toshkent: "O'qituvchi", 2001.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat- Toshkent: TDPU, 2003.
5. Xodjabaev A.R., Xusanov I. Kasb ta'limi metodologiyasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent, "Aloqachi", 2007.

6. Tojiboeva D., Yo'ldoshev A. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, “Aloqachi”, 2009.
7. Sharipov SH.S., Vorobev N.A., Muslimov N.A., Ismoilova M. Kasbiy ta'lim pedagogikasi - Toshkent, TDPU, 2005.
8. Olimov T., Abduquddusov O., Uzoqova L.P., Axmedjonov M., Jalolova D. Kasb ta'limi uslubiyati - Toshkent, “Iqtisod–moliya”, 2006.

